

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA SHAXS DEYKSISINI HOSIL QILUVCHI BIRLIKLER

Bahriiddinova Gavhar Oydinovna

Navoiy davlat pedagogika instituti Ta’lim tarbiya nazariyasi metodikasi
(maktabgacha ta’lim) yo‘nalishi magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxs deyksisi atamasi va nazariyasi, shaxs deyksisi va u bilan bo‘g‘liq nazariy qarashlar ,shaxs deyksisining nazariy qarashlari hamda uni ifodalovchi til birliklari haqida nazariy bilimlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: shaxs deyksis predmet deyksis belgi deyksis miqdor deyksis makon deyksis zamon deyksis ijtimoiy deyksis emotsiyal deyksis propozitiv deyksis diskurs deyksis.

Deyksis tadqiqiga bag‘ishlangan keyingi tadqiqotlarda ananaviy tarzda ajraluvchi shaxs, zamon, makon deyksisi qatoriga me’yoriy holat va baho deyksisi, emotsiyal deyksis, diskurs deyksisi, sotsial deyksis, denotativ, kommunikativ deyksis, predmet deyksisi, miqdor – ko‘rsatgich deyksisi kabi deyksis turlari ham ko‘rsatib har birining mohiyati va ifoda vositalari yoritilgan.

Bizningcha, mazkur tasnif mantiqiy yondashuv mahsuli bo‘lib borliqdagi har qanday mavjudlikning me’yoriy va o‘zgaruvchan holatini ifodalovchi lisoniy hodisani deyksis deb baholab bo‘lmaydi.

Shuningdek, so‘zlovchining baho munosabati orqali yuzaga chiquvchi deyksisning baho deyksisi deb tasniflanishi ham munozarali.

Bizningcha, so‘zlovchining vogelikka subyektiv baho berish orqali anlashiluvchi salbiy va ijobiy munosabat til birliklarining sxemasidan bevosita anglashilib turadi. Bunda baho munosabatini ifodalovchi birliklar orqali baho egasiga, ya’ni so‘zlovchining o‘ziga ishora ifodalanadi. Bu ishora yashirin tarzda namoyon bo‘lganligi sababli mazkur holatni shaxs deyksisining implisit ifodasi deb yondashish maqsadga muvofiq.

R. Lakoff deyksisni zamon-makon, diskurs va emotsiyal turlarga ajratishni taklif qilgan. Dastlabki ikki tur tilshunoslikdagi an’anaviy tasnifga muvofiq keladi. Olim emotsiyal deyksis so‘zlovchining his – tuyg‘ular ta’sirida deyktik birliklarning amaldagi vazifalariga rioya qilinmagan holda yuzaga chiqishini namoyon qiladi.

V.V. Jura, V.I. Shaxoviskiylar tomonidan deyksisning emotsanal turi ko'rsatilgan. Tilshunos olimlarning fikricha, emotsional deyksisda "emotsional nutq faoliyatini amalga oshirish uchun asos vazifasini bajaruvchi so'zlovchining ruhiy holatiga" ishora anglashiladi. Darhaqiqat, inson obyektiv borliqdagi voqeliklarni qabul qilar ekan, unda turlicha emotsional holatlar kechadi. U o'zining mazkur holatini to'g'ridan tog'ri ifodalamasligi mumkin, biroq uning voqelikka bildirgan munosabati uning emotsional holatini ko'rsatib turadi.

Ch. Filmor esa an'anaviy shaxs, makon, zamon deyksislari qatoriga ijtimoiy va diskurs deyksislarini ajratgan. Uning nazarida diskursiv deyksis matn qismlariga ishora qiluvchi leksis va grammatik elementlar bilan bog'liq. Shuningdek, u diskursiv deyksisnin bevosita matnga aloqador deb hisoblamaydi. Oimlar fikricha, diskursiv deyksisda tilning og'zaki va yozma shakllari uchun xos bo'lgan vositalari mavjud, ijtimoiy deyksis esa real hayotning ba'zi ijtimoiy vaziyatlarini aks ettiradi.

D.A. Akselrud vaziyat va matn deyksisini ajratgan. U vaziyat deyksisiga shaxs, zamon, makon deyksislarini, matn deyksisiga esa mustaqil jumlalar o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlovchi, ya'ni qiyoslovchi yoki tenglashtiruvchi, ishora qiluvchi, aniqlik kirituvchi, umumlashtiruvchi semantik xususiyatga ega til biriklari orqali yuzaga keladigan deyksisni kiritishni taklif qilgan.

Nemis olimi G.Sitta esa so'zlovchining mavqeyini makon deyksisi tavsifida hisobga oladi. Shunga ko'ra makon deyksisining autodeyksis va getodeyksis turlarini ajratish mumkinligini, autodeksisda ishora so'zlovchi mavqeyiga bog'liq bo'lishi, getodeksis esa so'zlovchining mavqeyi kiritilmagan o'rnlarga taaluqli ekanligini qayd etadi.

Ayrim tadqiqotlarda deyksis turlarini belgilashfa ishora manbai e'tiborga olinadi. T.N.Astafurova xatlar matnni tahlil qilar ekan, bunday matnda deyksisning kommunikativ yoki adresativ deyksis turlarini ajratgan. Uning fikricha, xatlar muayyan adresatga qaratilgan bo'ladi, shunga ko'ra xatlar matniga xos deyksisni adresativ deyksis termini bilan atash maqsadga muvofiq.

Bizningcha, nafaqat xatlar matni, balik har qanday nutqiy tuzilma "adresatlik" va "kommunikativlik" xususiyatiga ega. Bu o'rinda nutqning kimga qaratilganligi va unda kimga ishora qilinishi masalasini farqlash lozim. Deyksis tasnifiga doir ilmiy manbaalar taxlili asosida aytish mumkinki, deyksis turlarini belgilashda uni hosil qiluvchi deyktik birliklarni belgilash muhim o'rinn tutadi. Deyktik birliklar tilning ishoraviy birliklari ekan, ularning, avvalo, nimaga ishora qilishni aniqlash muhim. Bu jihatdan, yani deyktik birliklarning ishora obyektiga ko'ra o'zbek tilida deyksisning quyidagi turlarini farqlash mumkin

- 1)shaxs deyksis;
- 2)predmet deyksis;

- 3)belgi deyksis;
- 4)miqdor deyksis;
- 5)makon deyksis;
- 6)zamon deyksis;
- 7)ijtimoiy deyksis;
- 8)emotsional deyksis;
- 9)propozitiv deyksis;
- 10)diskurs deyksis;

Xullas, deyksis turlari masalasiga doir ilmiy manbaalarda deyksisning turlicha yondashuvlar asosida tasniflanishi kuzatiladi. Deyksisning qayd qilingan turlari uning qaysidir jihatini ochib berishga xizmat qiladi. Demak, deyksisning ishoraviylik vazifasi ko‘ptarmoqli. Har bir tarmoqini o‘rganish esa deyksis mohoyatining to‘liq ochib berishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

- 1.Davlatova R. H. O‘zbek tilida deyksis va uning turlari. Nodirabegim nashriyoti Toshkent - 2020
- 2.www.dissercat.com
- 3.www.philol.msu.ru
- 4.www.msu.ru/